



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

PRESCHOOL EDUCATION IS THE KEY TO FUTURE SUCCESS

Shahnoza Najmuddinova¹

Kokand University

KEYWORDS

Pedagogy, Ilk qadam program,
preschool education,
preparation for school,
methodical instructions

ABSTRACT

This article is devoted to the content of the "Ilk qadam" state program, which was introduced to develop the preschool education system. Also, it will be discussed about the issues that must be addressed within the framework of this program.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.11479332**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of Kokand University, Fergana, Uzbekistan (najmuddinovashaxnoza26@gmail.com)

MAKTABGACHA TA'LIM - KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYAT ASOSIDIR

KALIT SO'ZLAR/**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

Pedagogika, "Ilk qadam" dasturi, maktabgacha ta'lim, matabga tayyorlov, metodik ko'rsatmalar

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Ushbu maqola Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida joriy etilgan "Ilk qadam" davlat dasturi mazmunini yoritishga bag'ishlanadi. Shuningdek, mazkur dastur doirasidagi bajarilishi lozim bo'lgan masalalar to'g'risida mulohazalar bayon qilingan.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim bola shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Zero, maktabgacha ta'lim tashkilotida puxta tayyorlanib matabga chiqqan bolajonlarning yutuqlarga erishish imkoniyati kengayadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga oid davlat talablarida mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, jahon tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nан mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsad qilib olinadi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim uzlusiz ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ta'limning mazkur bo'g'inini rivojlantirish, shu asnoda bolaning intellektual shaxsini shakllantirish, ta'lim xizmatlarini yaratish orqali sifat darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani sohadagi izchil islohotlarning natijasi bo'lmoqda. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 100 maqsadida maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangani ham katta e'tiborga molik. Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasining birinchi va muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. 2017 yil 16 avgust va 19 oktyabr kunlari bo'lib o'tgan yig'ilishlarda bu masala atroflicha muhokama qilingan edi. 2017-yil 30-sentyabrdan Prezidentimiz tomonidan "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon qabul qilindi. Davlatimiz rahbarining hududlarga tashriflari chog'ida o'tkazilgan majlislarda ham bu borada ko'plab vazifalar belgilab berildi. Maktabgacha ta'lim sohasi uzlusiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va ularni matabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda yoshlarning kelajagiga qaratilayotgan e'tibor, ta'lim tizimida istiqbolli dasturlar asosida olib borilayotgan amaliy ishlar Vatan, jamiyat taraqqiyoti yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari mifik yoshibacha bo'lgan bolalarning savodini chiqarish, ularda Vatanni sevish, u bilan g'ururlanish hissini uyg'otish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini beradi. Zamonaviy bog'chalarda ta'limtarbiya olayotgan o'g'il-qizlar jamiyatga munosib inson bo'lib ulg'ayishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ham Konsepsiyaning asosiy yo'naliшlaridan biridir. Mazkur tizimda innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta'minlash, internet tarmog'iga ulanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'limda tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni yanada takomillashtirish mavzusida tuman (shahar) Maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan o'quv-seminarlar, tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadbirlarda "OPEN EMIS" tizimidagi xato kamchiliklarni tuzatish bo'yicha amaliy ko'nikmalar berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlangan va u quyidagilarni nazarda tutadi: maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish; maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish; bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish; maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash; maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish; maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash; Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019- yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»; 2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari; 2025-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi har yili 1 dekabrga qadar o'tayotgan yilning «Yo'l xaritasi» bajarilishi yakunlarini bat afsil o'rganish asosida keyingi yil uchun «Yo'l xaritasi»ni ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, shuningdek, «Yo'l xaritalari»ning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib boradi. Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini ilk va maktabgacha

yoshdagi bolalar rivojlanishga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat dasturi asosida rejalashtiriladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tasavvuridagi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarmni sifatli mактаб та'limiga tayyorlashda alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan "Ilk qadam" davlat dasturini ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish, dasturni to'laqonli ishlab ketishida metodik ta'minot va metodik yordamning o'rni belgilab olindi. "Ilk qadam" dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachning o'rniga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalg etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishslash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatları, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Ushbu o'quv dasturi eng yaxshi xalqaro amaliyot hamda Janubiy Koreya tajribasi asosida ishlab chiqilgan. "Ilk qadam" o'quv dasturining asosiy maqsadi hayoti davomida uzlusiz rivojlanishga qodir bo'lgan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Bu zamonaviy pedagogik tizimning asosiy o'ziga xosligi bolalarda o'qishga qiziqish uyg'otish hisoblanadi. Bu esa bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqtirishga alohida e'tibor berish kerak deganidir. Tizimdagagi yana bir qiziqarli yangiliklardan biri bu bolaning rivojlanish kartasi paydo bo'lishidir. U o'zida bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrini qamrab oladi. Karta bir yilda uch marta to'ldiriladi. Bola maktabgacha ta'lim muassasasini bitirganidan so'ng ya'ni 6-7 yoshda bolaning maktabga tayyorligi kartasi ham to'ldiriladi. Ushbu jarayon davlatning yangi talablariga asoslanadi. U bola rivojlanishining beshta asosiy yo'nalishini qamrab oladi: - Jismonan rivojlanish va sog'lom hayot tarzini shakllantirish; - Ijtimoiy-emotsional rivojlanish; - Nutq, suhbatlashish, o'qish va yozishdagi yutuqlari; - Bilim olish jarayonining rivojlanishi; - Ijodiy rivojlanish. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati Maktabgacha ta'lim muassasasida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni qo'llabquvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari javobgar bo'ladi. Zarurat tug'ilganda, pedagoglar tarkibi va maktabgacha ta'lim muassasasi rahbariyati, tor ixtisosdagi mutaxassislarini jalg etgan holda, bola (uning rivojlanishi) uchun o'quv-tarbiyaviy faoliyatning individual rejasini tuzadi. MTTlarda o'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish turlari yillik mavzuviy va haftalik ish rejalarini va tarbiyachi tomonidan rejalashtirishni amalga oshirish yoritib beriladi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat "O'zbekiston Respublikasining ilk va mактаб yoshidagi bolalarni rivojlantirishga oid davlat talablari" asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim sohasini isloh qilish bugun hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzarb sohalardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga

oshirish, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Ma'lumki, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilmasdan avval tizimda zamonaviy dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan. Taraqqiy etgan mamlakatlardagi kabi bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmagan edi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermas edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori misolida ko'rsak, mazkur konsepsiya maktabgacha ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi. Konsepsiya tasdiqlangandan so'ng o'tgan bir yildan ortiq vaqt mobaynida maktabgacha ta'lim tizimida yangi Qonun qabul qilindi, yangi loyihibar, islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

Maktabgacha ta'lim sohasi har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniqa, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdag'i bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Maktabgacha ta'lismiz tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lismiz vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi farmon va qarorlari, shuningdek, "Maktabgacha ta'lismiz tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta'lismiz tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lismiz sohasi uzluksiz ta'lismiz tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta'lismiz tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lismiz tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lismiz tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lismiz tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lismi-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lismiz dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Dastur – muhim vosita bo'lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta'lismiz jarayonini tashkil qilish yo'llarini belgilaydilar. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Zamonaviy maktabgacha ta'lismiz sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rinni tutadi" deya ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirish barpo etamiz". Toshkent. "O'zbekiston" -2016. 13-21 sahifalar.
2. Shavkat Mirziyoyev "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent. "O'zbekiston" -2017. 18-25 sahifalar.
3. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi: tarixiy-falsafiy. T.: «Ibn Sino». 2000. 132 b.
4. Bahranov SH. Shahs milliy o'zligini anglang qonuniyatlari. – Samarqand: Zaraf shon, 1995. – 136 b.
5. Abdullaeva SH. A. va boshq. Pedagogika. Toshkent, Fan nashriyoti. 2004 yil.
6. Asqarova O'. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalari. (Bakalavrning barcha pedagogik yo'nalishi uchun o'quv uslubiy qo'llanma). Toshkent. Istiqlol. 2005 y.
7. Zunnunov A. «Pedagogika nazariyasi». Oliy o'quv yurtlari uchun O'quv qo'llanma. Toshkent, «Aloqachi», 2006 yil.
8. Zunnunov A., va boshqalar. «Pedagogika tarihi» oliy o'quv yurtlari uchun O'quv

qo'llanma. – Toshkent, «Sharq» matbaa kontserni, 2000 yil.

9. Munavvarov A.K. «Pedagogika» tahriri ostida. Toshkent. «O'qituvchi». 1 996 y.

9. Rahimov S. Abu Ali Ibn Sino. Ta'lim va tarbiya haqida. – Toshkent, O'qituvchi, 1967.

– 75 bet

11. Egamberdieva N.M. «Ijtimoiy pedagogika» - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009 y.